



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 29 - yanvar

VI-53-15-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni va xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrda "Oqdaryo tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi (VI-51-136-7-92-K/21-son) qaroriga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari E.Ashurovning 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag'lar to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 02/04-30-sonli bildirish xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ishlar va ajratiladigan mablag'lar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Tursunov)ga, ajratilgan mablag'lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish

vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



Adilova D. I.

Халқ депутатлари Оқдарё туман Кенгашининг
2022 йил 29 январдаги
VI-53-15-7-92-К/22-сон қарорига
1-илова

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori

T/R	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘mda)	Asos
1	Tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qaroriga asosan tashkil etilgan tuman hokimining yordamchilariga 35 ta prentir va 50 pachka qog‘oz sotib olish xarajatlariga	75400,0	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning 2022-yil 28-yanvardagi 02/04-30-sonli bildirish xati.
2	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman hududidagi mahallalarning ichki tuproq yo‘llariga tosh-shag‘al yotqizish maqsadida yoqilg‘i moylash mahsulotlari sotib olish xarajatlariga	121720,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 27-yanvardagi 11-sonli xati tuman Moliya bo‘limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 27-yanvardagi 1/6-32-30-sonli xulosa xati.

3	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	2022 yil obod qishloq davlat dasturiga asosan qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan qishloqlarga piyodalar yo'lagini qurish ishlariga sement sotib olish xarajatlariga	37200,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 27-yanvardagi 10-sonli xati tuman Moliya bo'limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 27-yanvardagi 1/6-32-30-sonli xulosa xati.
4	Tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limiga	Tumandagi Chorbog'-2 MFYni ta'mirlash xarajatlariga	160000,0	Tuman hokimi o'rinbosari, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Y.O'roqovanning 2022-yil 28-yanvardagi 01-01-04/22-sonli xati tuman, Moliya bo'limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 28-yanvardagi 1/6-32-31-sonli xulosa xati.
	Jami:	x	394320,0	x